

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 225 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlrat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlrat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	



JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI

Mamadjanov Shuxrat Jaloliddinovich

NamDTU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Email:mamajanov suxhrat 64@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortish tartibi, kadastr qiymatini aniqlash va soliqqa tortishning huquqiy asoslari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk, soliq majburiyati, soliq stavkalari, kadastr qiymati, soliq bazasi.

Abstract. This article analyzes information on the procedure for taxing the property of individuals, determining the cadastral value, and the legal basis of taxation.

Key words: real estate, tax liability, tax rates, cadastral value, tax base.

Аннотация. В статье анализируется информация о порядке налогообложения имущества физических лиц, определения кадастровой стоимости, а также правовые основы налогообложения.

Ключевые слова: недвижимость, налоговое обязательство, налоговые ставки, кадастровая стоимость, налоговая база.

KIRISH

Ta'kidlash joizki, so'nggi vaqtlarda aksariyat yurtdoshlarimizda mol-mulk solig'i borasida etarlicha tushuncha mavjud emasligi bois bu masala aholi o'rtasida doimiy ravishda muhokama qilinib, mazkur bahslarda mulkdan foydalanuvchilar tomonidan ba'zi e'tirozi fikrlar paydo bo'lmoqda. Ular aksariyat hollarda, "Men umuman tushunolmayman: o'zimning shaxsiy xonadonimda yashab turib, yana qanday mulk uchun soliq to'layman? Uni sotib olganimga ko'p yillar bo'lgan, u mening shaxsiy mulkim bo'lsa, yana nima uchun soliq to'lashim kerak?" degan fikrlarni bildirishadi. Shu sababli mol-mulk solig'ining to'lanishi, mazkur soliqni hisoblash, byudjetga o'tkazish va takomillashtirish bo'yicha ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'chmas mulk sotib olish aksariyat insonlar uchun zaruriyat, ayrimlar uchun esa shunchaki hashamat sanaladi. Biroq o'z yurtidami yoki xorijdami, qat'i nazar ko'chmas mulk egasi bo'lish – bu faqatgina ehtiyojni qondirish, huzur - halovat yoki hashamatga ega bo'lishgina emas, birinchi navbatda, soliq majburiyatini yuzaga keltiradi. Uy-joy, kvartira yoki dala hovli sotib olar ekanmiz, uning qiymatiga yarasha soliq hisoblanishini ham unutmaslik kerak.

Aksariyat hollarda xaridorlar mulk narxi va xarid shartlari bilan ko'proq qiziqishadi-yu, mol-mulk solig'i haqida yo o'ylashmaydi, yo soliq nima uchun, qachon va qancha to'lanishi zarurligini bilishmaydi [1]. Natijada esa yuqorida kabi noto'g'ri fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Soliq tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'chmas mulk solig'i dunyoda qadimdan qo'llaniladi va davlat byudjetini to'ldirishning samarali vositalaridan biri sanaladi [2]. Ammo uning tarixidan hamma ham birdek xabardor bo'lmasa kerak. Soliqning mazkur turi eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Rim imperiyasi davridayoq qo'llanilgan. U er solig'i ko'rinishida bo'lib, er maydonidan olingan daromadning 10 foizini tashkil etgan.

O'rta asrlarning oxiriga qadar ko'chmas mulk solig'i Yevropada soliq solishning asosiy turlaridan biri sanalgan. XVI-XVII asrlarda uydagi o'choq va kaminlar soniga qarab undiriladigan uy solig'i ("kul solig'i" deb ham yuritilgan) joriy qilingan, keyinroq esa u uydagi eshik va oynalar soniga qarab belgilangan.

Ko'pgina mamlakatlarning soliq tizimi davrlar davomida rivojlanib, turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sirida bo'lgan [3]. Shuning uchun ham turli mamlakatlardagi soliq tizimlari nafaqat soliqlarning turlari va tuzilishi, stavkalari, yig'ish usullari, balki hokimiyatning fiskal vakolatlari va beriladigan imtiyozlari bilan ham farq qiladi. Bu shuningdek har xil turdagi mol-mulkka, xususan, ko'chmas mulkka (shu jumladan turar-joy binolari, binolar, inshootlar, qurilgan va o'zlashtirilmagan er uchastkalari) soliq solish uchun ham qo'llaniladi¹.

1 Абдиева Т., Назаров А.К. Хорижий мамлакатларда кўчмас мулкни солиққа тортишнинг ўзига хос хусусиятлари. "Экономика и социум" №6(85), ч 2. 2021



Ushbu soliq turini takomillashtirishga katta hissa qo'shgan shaxs shotlandiyalik iqtisodchi Adam Smit sanaladi. U XVIII asr oxirlariga kelib soliq siyosati tamoyillarini shakllantirgan va ish haqi hamda daromadlardan undiriladigan soliqlarning asosiy qismini er rentasiga o'tkazishni taklif qilgan.

Bugungi kunda ko'chmas mulk solig'i dunyoning 130 dan ortiq mamlakatida amal qilib, bu davlatlarning har birida mulk solig'ining ayrim tamoyillari o'zgarishsiz qoldirilib, aksariyat mamlakatlarning qonunchiligida u yoki bu darajada talqin etilgan. Ko'chmas mulk solig'i odatda er va unda qurilgan bino, yashash yoki tijorat yuritish uchun mo'ljallangan inshootlar uchun undiriladi [4]. Ayrim mamlakatlarda, ya'ni Italiya, Ispaniya, Yaponiya kabi davlatlarda yagona soliq solinsa, Turkiya, Fransiya, Rossiya davlatlarida esa ikkita mustaqil soliq turi qo'llaniladi.

Ko'chmas mulk solig'ining ham bir nechta turi mavjud bo'lib, ularga sotib olganlik uchun soliq, ko'chmas mulkdan tijorat maqsadida foydalanishdan olingan daromad uchun soliq, kapital qiymatining ortishidan to'lanadigan soliq hamda mulk uchun yilda bir marotaba to'lanadigan soliqlar kiradi. Ko'chmas mulk uchun soliq, asosan, bozor ma'lumotlari qo'llanilgan holda ob'ektning baholash qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi, ammo ayrim mamlakatlarda, xususan, Fransiya, Shvesiya, Buyuk Britaniyada to'lov uchun asos sifatida mulkning ijara bahosi olinadi [5].

Har bir davlatda mulk solig'ining o'ziga xos belgilangan qiymati mavjud bo'lib, masalan, ko'chmas mulk sotib olishda qo'llaniladigan bir martalik soliq Belgiyada mulk qiymatining 10-12 foizini, Gresiyada – 7-11 foizini, Ispaniyada – 6-7 foizini, Italiyada – 3-7 foizini, Germaniyada – 3,5-5 foizini, Bolgariyada esa – 0,1-3 foizini tashkil etadi.

Qariyb barcha mamlakatlarda ko'chmas mulk egalari hisoblangan jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mulk solig'i to'lovchilari sanaladi. Faqatgina ayrim davlatlarda, xususan, Niderlandiya va Fransiya ijara oluvchilar mulk uchun soliq to'laydilar. Shuningdek, ayrim toifa ko'chmas mulk yoki soliq to'lovchilarning ayrim guruhlariga imtiyozlar ham ko'zda tutilgan.

TADQIQOT METODLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Soliq qo'mitasi hamda mavjud ilmiy nashrlardan olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda mulk solig'i bilan bog'liq barcha huquqiy me'yorlar Soliq kodeksida keltirilgan bo'lib, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar jismoniy shaxslar uchun soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Shu kabi mol-mulkka ega bo'lgan yurtdoshlarimiz yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarga solinadigan mulk solig'i to'laydilar.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining kadastr qiymati soliq solinadigan baza hisoblanib, bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda qarori bilan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartiblariga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, ilgari mazkur soliq mol-mulkning inventarizatsiya qiymatidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan bo'lsa, 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab soliq stavkalari mol-mulkning kadastr qiymatidan kelib chiqib belgilanmoqda.

Jismoniy shaxslarga tegishli ko'chmas mulk ob'ektlarini kadastr qiymatini hisoblash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-dekabrda 1043-son qarori bilan "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risida"gi hamda 2018-yil 20-iyulda 561-son qarori bilan "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan noturar ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risida"gi nizomlari qabul qilingan bo'lib, mazkur nizomlarga muvofiq, kadastr idoralari tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymatlari belgilanib, soliq organlari tomonidan ushbu qiymatlar asosida soliq undirilmoqda.

Biroq, nazorat organlari tomonidan hududlarda olib borilayotgan nazorat tadbirlarida jismoniy shaxslarga tegishli ko'chmas mulklarning kadastr qiymatini belgilash tizimi mulkni bahosiga ta'sir qiluvchi qator mezonlar (joylashgan joyi, bino va fundamentining balandligi, erto'las mavjudligi, devorlarining qalinligi, uyning shifti va polining materiali tarkibi, eshik va romlarining materiali tarkibi, isitish va sovutish tizimlarining holati, asosiy va qo'shimcha binolarning qurilgan va ta'mirlangan yili) inobatga olinmaganligi hisobiga kadastr qiymati uning bozor qiymatidan keskin farq qilayotganligi ma'lum bo'lmoqda. Shu bois, jismoniy shaxslarning turar joy fondi va noturar ob'ektlarini kadastr qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra, soliq bazasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organi tomonidan aniqlanadigan kadastr qiymati hisoblanadi. Vakolatli davlat organi tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining shartli qiymati mavjud bo'lmagan taqdirda, Toshkent va Nukus shaharlarida, shuningdek viloyat markazlarida 42 mln. so'm summasining 5 barobari miqdorida mol-mulkning shartli qiymati soliq bazasi hisoblanadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ro'yxatdan o'tkazadi. Jismoniy shaxslarga tegishli uy-joy fondi ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymati jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash tartibi to'g'risidagi maxsus Nizomga muvofiq Kadastr agentligining kadastr hujjatlari va inventarizatsiya materiallari asosida hisoblanadi.

E'tiborli tomoni, 2024-yildan boshlab jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati va daromad olish uchun mo'ljallangan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlariga yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i uchun belgilangan minimal qiymatdan past bo'lmagan soliq bazasini aniqlash qoidalari tatbiq etilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va saqlash, ipak qurti etishtirish uchun mo'ljallangan ob'ektlar bundan mustasno hisoblanadi. Bunda jismoniy shaxs, agar ob'ektning 1 kv.m qiymati minimal qiymatdan past bo'lsa, ko'chmas mulk ob'ektlarining qiymatini mustaqil baholashni o'tkazish huquqiga ega bo'lib, bu holda ob'ektlarni baholash uchun baholash tashkiloti jalb qilinishi mumkin.

Ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash, aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy aktivlari o'sib borishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2025-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-sonli farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq ko'chmas mulk ob'ektlarining bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlashning zamonaviy usullari va mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash, aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy aktivlari o'sib borishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizdagi mavjud 8 milliondan ortiq turar va noturar joylar, 7 millionga yaqin er uchastkalarining iqtisodiy aktiv sifatidagi qiymatini aniqlash, ko'chmas mulk ob'ektining soliq solish, oldi-sotdi qilish, garovga qo'yish, jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish va boshqa holatlar uchun aniqlanadigan qiymati o'zaro mutanosib bo'lishini ta'minlash, ko'chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to'liq va davriy ravishda yangilanib boradigan axborot bazasini yaratish, soliq solishda adolatlilik tamoyilini yanada keng joriy etish, 2025 yildan boshlab bosqichma-bosqich barcha ko'chmas mulk ob'ektlari ularning bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlash maqsadida davriy ravishda ommaviy baholashdan o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

Ommaviy baholash ishlari eksperiment tariqasida 2025-2026-yillarda Toshkent shahrida, 2026-2027-yillarda Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda 2027 yil va undan keyingi yillarda - qolgan hududlarda amalga oshiriladi².

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni xulosa qiladigan bo'lsak, jismoniy shaxslarni mol-mulk solig'ini hisoblash jarayonini takomillashtirish sohasida davlat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar soliqlarning adolatlilik tamoyiliga mos ravishda mol-mulk ob'ektlari qiymatini belgilash, ularni qiymatini bozor baholariga yaqinlashtirish bu esa pirovard natijada davlat byudjeti daromadlilik darajasini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent. O'zbekiston, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Toshkent. O'zbekiston, 2020 y.
3. Vahobov A., Juraev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik -Toshkent. "Iqtisod Moliya", 2019 y.
4. Juraev A., Safarov G., Meyliev O. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma -Toshkent. " Iqtisod-Moliya", 2019 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmoni. Toshkent. 2025 y.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Кўчмас мулкни оммавий баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида"га фармони. Тошкент, 2025 й.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
